

“Ma`naviy qadriyatlar – Sog`lom avlod garovi” nomli maqolaga

ANNOTATSIYA

“Ma`naviy qadriyatlar – Sog`lom avlod garovi” nomli maqolada ma`naviy qadriyatlarimiz haqida so`z yuriyganmiz. Biz nega ma`naviy qadriyatlarni tiklashni ta`kidlayapmiz. Chunki, milliy qadriyatlar, ma`naviy qadriyatlar bilan uyg`unlikda rivojlanadi. Shuning uchun milliy o`zlikni anglashning o`lishidan, xalqning ma`naviy sarchashmalariga, uning ildizlaridan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

BOTIR NORMURATOV – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Jahon siyosati va tarix fakulteti Tarixshunoslik va tarixiy tadqiqotlar metodlari mutaxassisligi magistri

Ma`naviy qadriyatlar – Sog`lom avlod garovi

Ong mahsuli bo`lmish ta`lim-tarbiya o`z ma`rifiy falsafasiga ko`ra, avvalo, ong darajasi, ayni paytda, ong rivojining yakka-yu yagona asosidir. Ongni, tafakkurni, dunyoqarashni o`zgartirmasdan turib, sivilizatsiyaga erishib bo`lmaydi.

Islom Karimov

Odamzod o`zining taraqqiyot bosqichlarida, avvalo ijtimoiylashuv xossasi bilan ajralib turgan. U ongli mavjudot sifatida jamlashib, Yashashning mehr–oqibat, hamjihatlik, juftlik va oila birliklari, qarindosh urug`chilik munosabatlari sari rivoj topdi. Xullas, inson million yillar tajribasi asosida genetik xotira tizimiga ham kirib keldi. Bu tizim ba`zan asotiriy darajadagi ta`riflargacha o`zgaradi ham.

Bir jamoadan **“sizlar kimsizlar?”**– deb so`rasang favqulodda qiziq rivoyatlar bilan o`zlari haqida so`zlab qolishadi. Bular da goh haqiqat izlari bor, goh bir qarashda hayoliydek tuyiladi. XX asr oxiri – XXI asr boshi jahon siyosiy xaritasidagi tub o`zgarishlar, O`zbekistonimiz singari qator yangi davlatlarning paydo bo`lishi ulardagi xalqlarning o`z tarixi, genetik xotirasi, ma`naviy qiyofasini tiklashga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratdi. Ushbu imkoniyatdan xolis niyatda foydalangan holda o`zlikni anglash, o`zi va ota-bobosi tug`ilib o`sgan makoni haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lish, mahalliy va milliy qadriyatlarni avaylash masalasi bugungi kunda muhim ma`naviy zaruriyatga aylandi.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma`naviy uyg`onishning yana bir bitmas- tunganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g`oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo`lib kelgan. Etnik sabr-toqat, bag`rikenglik hayot bo`ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me`yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an`analarini, shu hududda mavjud bo`lgan davlatchilik an`analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko`p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir–birini boyitgan. Bu yerda ko`chmanchi xalqlar o`troq xalqlar bilan, Eronlik qabilalar Turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan ko`p asrlar birga yashab kelganlar. So`nggi ikki asr davomida ham o`zlarini **“madaniyatli”** va **“ma`rifatli”** hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg`inlar va ta`qiblar bilan o`zlariga dog` tushirgan bir paytda, O`zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joygina bo`lib qolmay, balki quvg`in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag`rikenglik tomon keskin o`zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhi, qudratining birinchi belgisidir. Bu ruh

shu qadar yorqin va o'ziga xoski, jahon hamjamiyatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda.

Jamiyatning diniy – ruhiy asoslarini, xalqimizning ming yillik ma'naviy–axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy–tarixiy birlikga ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Eski masjidlar ta'mirlanmoqda va yangilari bunyod qilinmoqda. O'quv yurtlari tarmog'i kengaymoqda.

Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqidagi g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Qadriyatlar muammosi ilm- fanda, amaliy hayotda, istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadni amalga oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Qadriyatlar deb, inson va insonning o'tmishda va hozirgi zamonda yaratgan, uning uchun g'oyat qimmatli, qadrli bo'lgan, xalq, millat, elat, ijtimoiy guruhlarining manfaat va maqsadiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy boyliklarga aytiladi.

Qadriyatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, boyimaydi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi uchun muayyan ijtimoiy, iqtisodiy sharoit zarur. Masalan tarixda uyg'onish davri deb nom olgan o'rta asrlarda mutafakkirlarning boy ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishlariga o'sha davrda ilgari asrlardagiga nisbatan qulay iqtisodiy negiz, ijtimoiy tuzum bo'lmaganda ular bu ishni qilolmas edilar.

Qadriyatlarni shakllantiruvchi ma'naviy asoslarga ilm-fan, jumladan, tabiiy, ijtimoiy fanlar, adabiyot, san'at, din ham kiradi. Bular qaysi mamlakatlarda, xalqda nechog'lik boy bo'lsa, o'sha davlatda xalq ommasi ularni har taraflama o'zlashtirsalar jamiyat a'zolari shunchalar ma'rifatli bo'ladi.

Qadriyatlar asosan uch turga bo'linadi. Birinchidan, milliy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan elat, millatga, uning uzoq va yaqin ajdodlariga xos bo'lgan qimmatli boyliklardir.

Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, har-xil bayramlari, xalq o'yinlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rnini va ahamiyatiga ega. Madaniy – ma'naviy merosimiz, asriy an'analar o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir. “Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojearlar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi”.¹

Qadriyatlarning ikkinchi turi mintaqaviy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan jug'rofiy mintaqaga xalqlariga, masalan, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy boyliklardir. Bunday qadriyatlar, ayniqsa bu o'lkalarning tabiiy-ilmiy, badiiy meroslarida yaqqol ko'rinadi.

Boshqa qadriyatlar kabi bularning shakllanishining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari bor. Ob'ektiv asoslar shundan iboratki, bu qadriyatlar yuzaga keltirayotgan, shakllantirilayotgan davrda o'sha mintaqada ishlab chiqarish resurslari va moddiy hayot rivojlanayotgan bo'ladi. Sub'ektiv zaminlar esa shundan iboratki, o'sha davrda dunyoviy ilm madaniy muassasa, ta'lim-tarbiya o'choqlari nisbatan ko'paytiriladi, bu soha doirasiga donishmandlar ilm-fan namayondalari chiqadilar. Masalan, IX-XII asrlarda butun bir boshli olimlar ideyasi ilm-ma'rifat maydoniga kirib keladilar.

Mintaqaviy qadriyatlarda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, mehnat faoliyati, kasb-kori, malakalari, turmush tarzida moddiy hayotga mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Qadriyatlarning uchinchi turi umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, ular butun insoniyatga jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ilm-fan, iqtisodiy(moddiy), siyosiy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, diniy, hurfiylik boyliklaridan iborat.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura –T: “O'zbekiston”, 1996. 78-bet.

Qadriyatlarning barcha tur va shakllari bilan manaviy, ayniqsa madaniy meros orasida dialektik birlik va tafovut bor.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida katta ma'naviy yuqotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xaf ostida qolayotganini kuzatish mumkun.

Shuning uchun ham bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi, jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy albatta, bu haqida gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lar edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan, asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

Agarki mendan, hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim, deb so'rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeiligiga ongli qarab mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim. Ishonchim komilki, anashunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Shu sababli biz ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz urf-odat va an'analarimizni asrab avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi yosh avlod kamolotiga baxshida etilgandir ².

Biron–bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz nega ma'naviy qadriyatlarni tiklashni ta'kidlayapmiz. Chunki, milliy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlanadi. Shuning uchun milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlaridan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Xalqimizning boy madaniy, ma'naviy va milliy qadriyatlariga tayangan holda fuqarolarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ko'p asrlik an'ana va urf-odatlarimizga nisbatan chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otish, madaniy-tarixiy yodgorliklarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodlarga bus-butun yetkazish bizning asosiy vazifalarimizdan biriga kiradi. Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni istiqbolimizning munosib davomchilari etib voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, biz ham xuddi shunday amaliy

² Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, -T: "Ma'naviyat" 2008.

ishlarimiz bilan bu ezgu maqsadlarga munosib hissa qo'shishimiz zarur deb bilaman.